

ZULMGA QARSHI QO‘ZG‘OLGAN VIJDON

To‘lqinova Shahribonu

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysida sho‘roga qarshi boshlangan ozodlik kurashlari hamda qo‘rboshilarning jasorati yoritiladi. Madaminbekning harbiy mahorati va komil inson sifatidagi fazilatlari asosida uning ozodlik yo‘lidagi hissasi tahlil qilinadi. Harakatning mag‘lubiyatiga sabab bo‘lgan ichki nizolar va birlikning yetishmasligi qisqacha ko‘rsatib o‘tiladi.

Annotation. This article examines the independence movements in the Fergana Valley against the Soviet authorities and the courage of the warlords involved. It focuses on Madaminbek’s role in the struggle, highlighting his military expertise, moral integrity, and leadership qualities. The study also briefly addresses the internal disputes and lack of cohesion that contributed to the movement’s defeat.

Kalit so‘zlar. Madaminbek, Mulla Ergash, “Sho‘roi ulamo”, tarixi mujohidon, Qizillar, polkovnik Nikolay, Amir-ul muslim, Hur Turkiston.

Keywords. Madaminbek, Mullah Ergash, "Council of the Clergy", history of the mujahideen, the Reds, Colonel Nikolay, Free Turkestan, Amir of the Muslims.

Yozuvchi Baxtiyor Abdug‘afur tomonidan “Qonli gullar vodiysi: Madaminbek yoxud Yurt deya qon to‘kkan bobolar qissasi” deya nomlangan ushbu roman o‘z ma’no chegarasidan uzoqlashmay butun asar davomida bo‘ston bo‘lgan vodiy hududlarini qon bilan sug‘orilishi, vatanparvarlik tomirlarida oqayotgan Madaminbek va u bilan yelkama-yelka turib sho‘roga qarshi jang qilgan jasur qo‘rboshilarni, shu bilan birga xiyonatkor, mug‘ombir shaxslar hayoti, o‘zaro ichki nizolarini batafsil yoritadi.

XX-asrning boshlarida sho‘ro tuzumiga qarshi rasman qurolli harakatlar boshlangan. Uning dastlabki boshchilari vodiy hududlaridan chiqqan Mulla Ergash va Madaminbek kabi yirik qo‘rboshilar bo‘lib, ular atrofida e‘tiqodi, or-nomusi, vatan va xalqini jabr-u sitamdan xalos qilmoqchi bo‘lgan kuchlar yig‘ildi. Chunki ularning boshchilari birinchi jahon urushini ko‘rgan, Sibirga surgun qilingan hatto mirshablar boshlig‘i lavozimlarida ishlagan harb ilmini egallagan shaxslar bo‘lib o‘z tarafdorlarini yig‘ib ozodlik harakatini boshlagan shaxslar edi. Bu harakatlarni boshlanishiga turtki esa Bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan dastlabki sotsialistik tadbirlar (korxonalarining davlat ixtiyoriga o‘tkazilishi, xususiyl mulkning tugatilishi, oziq-ovqat taqsimoti va g‘alla monopoliyasi, islom dinining

cheklanishi va ateizm targ‘iboti, masjid, madrasa, xususiy maktab va qozixonalarining bekitilishi, vaqf yerlarning tortib olinishi, majburiy mehnatning joriy qilinishi, bozorlarning yopilishi va boshqalar) hamda qizil armiya jangchilarining talonchilik va bosqinchilik siyosati bo‘ldi. Bu zulmlarga qarshi qo‘zg‘olgan harbiy tarkib xun talabida bo‘lgan faqirlardan, vatan ozodligi deya yo‘lga chiqqan yosh ziyolilardan tashkil topgandi. Keyinchalik Madaminbekning tadbirkorligi va harbiy ilmini puxta egallagani uchun “Dushmanimning dushmani -mening do‘stim” deya oq podshoning sobiq zobitlari bilan sulh tuzib, sho‘roga qarshi kurashish rejasini qo‘rboshilar o‘rtasiga tashladi. Qo‘shinda dehqon va hunarmandlar ko‘p bo‘lgani, ular esa harbiy ilmni yaxshi bilmagani sabab qo‘shin zaif holda edi. Shuni anglagan qo‘rboshilar, polkovnik Nikolayning tajribali askarlari qo‘shinga qo‘shilib ularga ham harbiy tayyorgarlikni o‘rgatsa, qo‘shin ancha kuchayishini tushundilar. Ko‘zlangan maqsadga birmuncha erishildi. Turkistondagi ozodchilik harakatlari ko‘lami kengayib umumiy hisobda Namangan qal‘asi, Marg‘ilonni, Farg‘ona vohasidagi Bachqir, Garbuva, Andijondagi Oyimqishloq, O‘sh va Jalolobod hududlarini qizil armiyadan tozaladilar.

Garbuva dagi yig‘ilishda polkovnik Nikolay shunday deydi “Turkistonni ellik yil mustamlaka qildik, biroq xalqini imperatorga ham, imperiyaga ham sadoqatli qilib tarbiyalay olmadik. Imkon berilsa, bu xalq bosh ko‘taradi. Qochgani joy topolmay qolamiz. Sababi, bu xalqning e‘tiqodi kuchli, tomiri baquvvat, urf-odatini aslo tark etmaydi”. Bunda umumiy Turkiston xalqini tipik ta‘rifi haqida gap ketgan. Madaminbek obrazi bu ta‘rifni o‘z xislatlari bilan yanada yaqqol ko‘rsatadi. Boshida u sho‘ro hukumatida faoliyat yuritib baribir ularning zulumiga ko‘z yumib sodiqlik qilolmaydi. Imkon topib ozodlik harakatlarini boshlaydi va bu bilan qizillarni ancha saromisiga solib hatto ularni sulh tuzish taklifi bilan chiqishga majburlaydi. E‘tiqodiga to‘xtalsak chin ma’noda sunnatga ergashgan turmushda ham muhorabalarda ham o‘zgalarga o‘rnak bo‘la olgan. Jang asnosida keksalar, ayollar va bolalarga ko‘rsatgan shafqati, asirlarga qilgan muomilasi va har bir hukm chiqarishda shari‘atga yuzlangani, g‘alabalardan so‘ng ado etgan shukrona namozi-yu, xatmonalari haqiqiy mo‘min ekanligiga dalildir. Yozuvchi asar haqida bergan intervyusida “Men tarixini yozishgan bel bog‘lagan Madaminbek esa, istiqloq kurashchisi bo‘lish bilan bir qatorda, hassos she‘r muxlisi va hofizi Qur‘on bo‘lgan” deya ta‘rif beradi. Shunday jihatlari bilan ham xalq qalbi va she‘rlarida joy olgan. “Muborak otidir Muhammad Amin, Anga der hamma ofarin, ofarin.” Jang muhorabalaridagi san‘ati tahsinga loyiq edi, qismlarni ustamonlik bilan boshqarolgan sarkarda bo‘lib qurol va ozuqa uchun o‘z molini ayamagan saxiylardan edi. 1919-yilning kuz oylarida Ergashtom ovulida bo‘lgan qurultoyda MFH Muvaqqat Farg‘ona hukumati tuzilib uning boshlig‘i etib Madaminbek saylanadi va unga “Amir al-muslimin” unvoni beriladi. U faqatgina el yurti hurlikka erishib bu tutqunlikdan

qutilishini xohlab beklar, qo‘rboshilar hatto krestyanlar armiyasi bilan qizil podsho askarlarini ancha dovdiratgan edi. Rossiya o‘z mustamlaka hududlaridan Turkistondagi milliy ozodlik harakatlarini tinchitish uchun doimiy askarlarini safarbar qilgan. Afsuki bu katta kuchga qarshi turish juda qiyin bo‘lgan. Ular Madaminbekni “Musulmon qo‘shinlar armiyasi bosh Qo‘mondoni” deyish darajasida katta kuchdan qo‘rqishgan lekin bu uchqunni nima so‘ndirdi?

Nima sababdan biz yengildik? Birinchi bo‘lib “Amir al-muslimin” sifatida tan olingan Mulla Ergashning Madaminbek bilan birlashishni rad etishi qo‘rboshilar o‘rtasidagi ichki ziddiyatlarni chuqurlashtiradi. Uning shaxsiy manfaat va obro‘ni umumiy maqsaddan ustun qo‘yishi natijasida ayrim lashkarboshilar norozilik bildirib safni tark etadi, biroq qolganlar ittifoq g‘oyasini qo‘llab-quvvatlab, mavjud qismni mustahkamlashga kirishadilar. Namangan qamali chog‘ida esa Madaminbek xiyonatkor beklar, vaqtida yetib kelmagan ko‘mak va eng asosiysi - Mulla Ergash qo‘shinining yo‘qligi sababli ilk bor og‘ir mag‘lubiyatga duch kelgan edi. Keyinchalik u o‘zaro munosabatlarni tiklash maqsadida Hojimurod Eshon va Islomxon To‘ralarni vositachi sifatida yuboradi, ammo bu urinish ham kutilgan natija bermaydi. Nega? Nima uchun butun boshli sho‘ro hukumatining zulmi, xalqning paymol etilgan haqlari bir yoqdan turib, qo‘rboshilikni zimmasiga olgan shaxslar o‘zlarining “meni”ni yengolmadi? Qanday sabab bilan “Hur Turkiston” g‘oyasi bir chetga surildi? Bu kabi savollarning birlamchi javobi ilmga amal yo‘qligidir. Roman bilan tanishharkansiz deyarli hamma beklar shari‘at va diniy ilmlarni o‘rganganini guvohi bo‘lamiz. Amalga kelganda esa, nafsini ovozi o‘chirishga kuchi yetmagan va shaytonning ig‘vosiga uchib Bekga bo‘ysinishni istamay bek bo‘lishni davo qilganlarini ham ko‘ramiz afsuski. To‘ra va qo‘rboshiligini suiiste‘mol qilib Madaminbekni uyaltirganlari ham bo‘ldi. Ba‘zi toifalar kofirlar bilan bir safda ya‘ni oq podshohning zobitlari bilan birlashmaymiz deya safni tark etdilar. Ular din va dunyosi o‘rtasidagi mo‘tadillikni yo‘qotib qo‘ymadimikan? Mo‘tadillik bu – haddan oshish yoki sustkashlikka yo‘l qo‘yish, qattiq olish yoki o‘ta bo‘sh qo‘yib yuborish o‘rtasida bo‘lib, mana shu muvozanatni saqlagan kishi to‘g‘ri yo‘ldan adashmaydi. Biroq qo‘rboshilarning bu yo‘ldan toyganini ko‘rishimiz mumkin. Islomxon To‘ra o‘zining asarida ham hamma bir yoqadigan bosh chiqarib asosiy maqsad hurlik uchun kurashishi kerakligini, faqat din deb cheklanmay zamon bilan hamnafas bo‘lib yashash kerakligini ta’kidlaydi.

Ikkinchi sababga yuzlansak, Buxoro va Xiva Respublika bo‘la turib harbiy va moddiy jihatdan kuchli bo‘lsada yordam so‘ralganda kelmaydi, bir musht bo‘lib tugilmaydi. Millatdoshlari sho‘ro qo‘lida xor bo‘lsada o‘z manfaatini o‘ylab vodiy taqdirini e‘tiborsiz qoldiradi. Yillar o‘tib qaram bo‘lganda buning badalini joni, moli va e‘tiqodi bilan judo og‘ir o‘taydi. Tashqi tarafdagi ko‘makdan umidini uzmagani Madaminbek

Kobuldan Amir Ibrohimdan ham yordam so‘raydi ammo uning maqsadi Farg‘ona hududlarini egallash bo‘lgani uchun bu taklif ochiqlicha qoladi.

Afsuski, biz turkiylar bu kabi oltin boshlarni saqlay olmaganmiz, aksincha, o‘zimiz boshini kundaga qo‘yganmiz. Komissar Zinovyevni hayotini saqlab qolishining badali o‘z boshi bo‘lishini bilganida balki Madaminbek bu xatoni qilmasdi. Lekin yelkadosh qo‘rboshilari “Soyib qori va Lutfullo Maxdum” lar bu ishga o‘z hissasini qo‘shishi bu millatning tanazzulidir. Aqlli sho‘ro Madaminbek kabi qo‘rqmas, xalq manfaatini ustun qo‘yib u uchun kurashadigan va izdoshlarini ham ergashtiradigan qo‘rboshidan qutulsa, qolganlarini tinchitish qiyin bo‘lmasligini bilgan va buni o‘zinikilarning qo‘li yordamida osongina amalga oshirgan. Bizga nodiri davronlarni asraydigan, yer changitib, ot o‘ynatgan polvonlar yetishmagan deyish u davrning qahramonlariga otilgan tana toshidek bo‘lar. Lekin Turkistonda yakka o‘zi bek bo‘lmoqchi bo‘lganlar Madaminbekday yurt fidoyilarini oxirat manziliga shahid hollarida kuzatishni xohlab bosqinchiga yugurdaklik, o‘z eliga xoinlik qilganlar afsuski talaygina bo‘lgan. Xoinlar o‘zlarini mozoristondagi sassiz o‘liklar kabi mute bo‘lib yashashga va xalqni ham shunday yashatishga majbur qildilar. Xalq bu alam va og‘riqlarni faqat she‘r-u g‘azal qila oldi xolos.

Madaminbekning diyorida
Yuragi yongan zotlar qani?
Jannatmakon derlar seni
Jannatmakonlar qani?
Tomlari tomga tutashgan
Gul shohimardonlar qani?
Farg‘onajon, Farg‘onajon
Botirlar tuqqan onajon.

Madaminbekning so‘nggi so‘zlari har bir turkiy zabon uchun ogohlantiruvchi va ruhlantiruvchi chin ma‘nodagi motivatsiya bo‘lgan. “Jadidlar Turkistonning unitilgan ta‘rixi, ma‘naviyati. Ulamolar – Turkistonning e‘tiqodi. Qo‘rboshilar esa Turkistonning mudrayotgan qudratidir” deya baralla sho‘roga tahdid qila olgan yurtimizning azamati bilan faxrlansak arziydi. Lekin negadir biz bundan qo‘rqamiz yo tilga olishni xohlamaymiz. Bu kabi qahramon shaxslarni tanitish uchun yozilgan kitoblarimiz 10 yilga yaqin nashriyotlarda chang bosib yotsa, kino suratga olish uchun ro‘yihat qilinsa-yu, ko‘rinmas qo‘llar tomonidan olinishga ulgurmay ro‘yihatdan o‘chirilsa, ularni oqlashga harakat qilinmasa - ularning haqqi qay darajada ado etilgan bo‘larkin. 34 yildan beri mustaqil bo‘la turib, o‘z tariximizni tiklashdan hadiksirashimiz qay darajada to‘g‘ri buni ham bilmadik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Rajabova,R.Karimov,K.Oqilov,A.Ibragimova,I.Alimov,F.Ishoqov.“O'zbekiston tarixi. 1917-1993 yillar”.Toshkent, 1994-yil
2. “Qonli gullar vodiysi: Madaminbek” romani muallifi bilan suhbat. Toshkent,2018-yil 25-avgust
3. Jo'ybori Kalon.“Islom Mo‘tadil din”.Buxoro, 2023-yil
4. B.Abduga‘fur.“Qonli gullar vodiysi: Madaminbek”.Toshkent,2021-yil
5. [www. Ziyo.uz](http://www.Ziyo.uz).
6. <https://kun.uz/80639120>
- 7.<https://qalampir.uz/uz/news/fitna-k-urboni-bol-sheviklarga-k-arshi-kurashgan-madaminbek-k-urboshini-kim-uldirgan-48319>